

**O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI YO‘NALISHI SIFATIDA
TURIZMNI RIVOJLANISHI**

Choriyeva Nargiza Ibotovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

kurs tayanch doktorant

Email:chorievanargiza257@gmail.com

+998931708807

Polvanov Azim Kuchkarovich

Toshkent Texnologiya, Menejment va kommunikatsiya instituti

“Tillar va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Email:polvanovazim70@gmail.com

+998933948585

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15407837>

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatning tarixiy-madaniy merosi, tabiiy resurslari va zamonaviy infratuzilma imkoniyatlari turizm sohasining salohiyatini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati, hamda sohaning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: turizm, ichki turizm, xalqaro turizm, tarixiy obidalar, turizm infratuzilmasi, madaniy meros,

Annotation: In this article, the country's historical and cultural heritage, natural resources and modern infrastructure opportunities are mentioned as the main factors determining the potential of the tourism sector. The article summarizes the economic, social and cultural importance of tourism, as well as the areas of future development of the industry.

Key words: New Uzbekistan, Tourism, Domestic Tourism, International Tourism, historical monuments, tourism infrastructure, , cultural heritage,

Аннотация: В данной статье описывается развитие туристической отрасли в Узбекистане. проанализированы тенденции развития, Историко-культурное наследие страны, природные ресурсы и возможности современной инфраструктуры были названы основными факторами, определяющими потенциал туристской отрасли. В статье резюмируется экономическое, социальное и культурное значение туризма, а также перспективные направления развития отрасли.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, туризм, внутренний туризм, международный туризм, исторические памятники, туристическая инфраструктура, культурное наследие,

Hozirgi kunda dunyo iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushi ortib borayotgan bir vaqtda, turizm sohasi ham jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan



biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat O'zbekiston uchun ham xos bo'lib, mamlakatimizda turizm iqtisodiyotning strategik yo'nalishlaridan biriga aylangan. Insonlar bo'sh vaqtini samarali o'tkazish, dam olish, sog'ligini tiklash, boshqa xalqlar madaniyati, urf-odatlarini bilan tanishish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Shu bois, turizm faqat iqtisodiy foyda keltiruvchi soha emas, balki xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlovchi omil ham hisoblanadi. O'zbekiston o'zining boy tarixiy merosi, noyob me'moriy yodgorliklari, go'zal tabiati va mehmondo'st xalqi bilan turizm sohasida katta salohiyatga ega. So'nggi yillarda ushbu sohaga davlat darajasida e'tibor kuchaytirilib, muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham iqtisodiyotining noishlab chiqarish sohalaridan biri xususan turizm soxasiga katta e'tibor kuchayib bormoqda. Insonlar borgan sari o'zlarining bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf odatlarini, qadriyatlarini bilishga intilmoqda. Bundan tashqari, insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. XX asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizm industriyasining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi.[1.1003]

Bizning mamlakatimiz esa ana shunday o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, noyob moddiy va nomoddiy madaniy qadriyatlari, me'moriy obidalarini bilan jahonda alohida mavqega ega.

O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar mavjud. Ushbu soha yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi farovonligini oshirish, valyuta va soliq tushumlari ko'payishida muhim ahamiyatga ega.[B.102]

O'zbekistonda turizm sohasiga e'tibor, bu industriyaga ajratilayotgan investitsiyalar ajratish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, turizmni har tomonlama rivojlantirish amalga oshirilayotgan islohotlarda namoyon bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida fuqarolarimizda sayyohlik imkoniyatini oshirish, turistik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Zero yurtimizda qadimdan boshlab o'zga hududlarga tijorat, ziyorat, harbiy va boshqa maqsadlarda safar qilish holatlari faol kuzatilgan.[3.101]

O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri xorijiy turistlarni qadimiy tarixga ega bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi shaharlarimizdagi tarixiy obidalar, m e'morchilik, diniy va madaniy yodgorliklar hamda respublikadagi boshqa diqqatga sazovor



zamonaviy joylar bilan tanishtirish orqali ularga madaniy-ma'rifiy ozuqa berishdir.[4.35]

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri bu Milliy Turizmdir, dedi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, - O'zbekiston turizm sohasida katta salohiyatga ega davlatdir.

Mamlakatimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning o'ziga xos tabiati, go'zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi sayyohlik yo'nalishlarini ochish mumkin. Jahon brendlarining faol ishtiroki bilan ushbu sektorda biz turizm, ekologik ma'rifiy, etnografik, gastronomik, turizm va boshqa sohalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Shu munosabat bilan biz davlat va xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz kerak. Samarqand, Buxoro, Xorazim, Surxondaryo va Toshkentdagi muqaddas qadamjolarni va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat

bo'lgan "Kichik haj" dasturini ishlab chiqish va tezlashtirish zarur. Shuningdek, ichki turizm sohasida keng ko'lamli imkoniyatlarni to'liq ishga tushirish zarur.[5]

Mamlakatimizni 2017 — 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. [6]

35-maqсад: "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish.

To'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish.

Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish. [7]

Mamlakatimizning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy go'zalliklari va zamonaviy infratuzilmasi xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb etishda muhim omil bo'lmoqda. Soha rivoji nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholining farovonligi va xalqaro imidjning oshishiga ham xizmat qilmoqda. Kelgusida bu yo'nalishdagi islohotlar va innovatsion





yondashuvlar asosida O'zbekiston turizmida jahonning ilg'or davlatlari qatoridan o'rin olishi shubhasizdir.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.Ibroimov Sh. Ismoilov A. O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TARIXIGA NAZAR. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89. B.1003
- 2.Shovdirov.T. O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI MUAMMO VA ISTIQBOLLAR. Builders of The Future . ISSN: 2181-2705. B.102
3. Shakhzoda SH. Turizm madaniyati: tarixiy evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. B.101
4. Kamilova F. Kamilov Z. Xalqaro turizm bozori. 'O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI . TOSHKENT - 2011. B.35
5. Mustanov N. Mirobodiva D. Azamatova D, Toshpo'latova M. O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI VA ICHKI TURIZMNING RIVOJLANISH TAMOYILLARI HAMDA TURIZMNING PANDEMIYA BILAN BOG'LIQLIGI."Экономика и социум" №5(84) ч.1 2021
- 6.<https://lex.uz/docs/-5841063>
- 7.<https://lex.uz/docs/-5841063>

